



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INSON INTELEKTUAL QOBILIYATINI IFODALOVCHI IBORALARNING AHAMIYATI

Shamsiyeva Xolida Sharobiddin qizi

*SamDCHTI Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti, Ingliz tili o'qitish
metodikasi kafedrasida stajyor-o'qituvchisi*

ORCID: 0009-0000-7060-0755

kholidashams93@gmail.com

+99893-722-18-93

Annonatsiya: Ushbu maqolada aqliy qobiliyatini ifodalovchi frazeologik birliklar ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishi yoritib berilgan. Shuningdek, maqola aqliy qobiliyatini ifodalovchi iboralarning til va jamiyatdagi ahamiyati va o'rnini ham ochib beradi. Maqolada, asosan, qiyoslash metodi qo'llanilgan bo'lib, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birikmalar solishtirilgan. Xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillarida intellektual qobiliyatni ifodalovchi bir nechta iboralarning tasnifini ko'rsatib bergan.

Kalit so'zlar: aqliy qobiliyat, iboara, frazeologiya, frazeologik birliklar, tafakkur, intellektual qobiliyat.

Аннотация: В данной статье объясняется выражение фразеологизмов, выражающих умственные способности в английском и узбекском языках. Также в статье раскрывается значение и место выражений, выражающих умственные способности, в языке и обществе. В статье преимущественно используется метод сравнения и сравниваются фразеологические сочетания в английском и узбекском языках. В заключение он привел классификацию нескольких выражений, выражающих интеллектуальные способности в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: интеллектуальные способности, фразеология, фразеология, фразеологизмы, мышление, интеллектуальные способности.

Abstract: This article examines the expression of phraseological units expressing intellectual ability in English and Uzbek. The article also reveals the importance and place of phrases expressing intellectual ability in language and society. The article mainly uses the comparative method and compares phraseological units in English and Uzbek. In conclusion, it shows the classification of several phrases expressing intellectual ability in English and Uzbek.

Keywords: mental ability, idiom, phraseology, phraseological units, thinking, intellectual ability.

KIRISH

Frazeologiya, umuman, xalq maqollari, iboralar, ko‘chma ma’noda ishlatiladigan so‘z birikmalari tilshunoslikda alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, aqliy qobiliyatini ifodalovchi iboralar jamiyatda doimo yuqori o‘rin tutadi. Bizning fikrlashimiz, o‘ylarimiz, masalalarni hal qila olishimizdagi yondoshuvimiz, qarorlarimiz va dunyoqarashimiz har bir shaxsning professional muvaffaqiyatini belgilab beradi. Aql, ong, tafakkur va mantiqiy fikrlash – bular nafaqat til orqali, balki insonlarning kundalik hayotida faoliyatlarida o‘z aksini topadi. Intellektual qobiliyati, uning aqliy salohiyati, fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari hayotning turli sohalarida qo‘l keladi. Aqliy faollik – insonning fikrlash, tahlil qilish, qarorlar qabul qila olishi va muammolarni o‘z o‘rnida hal qila olish kabi psixik jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Bu qobiliyat har bir odamda mavjud bo‘lib, uning kundalik hayotida va jamiyatdagi o‘rni nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Aqliy qobiliyatni ifodalovchi frazeologik birliklar tilning eng boy va rang-barang qatlamlaridan biridir. Til o‘zining frazeologik birliklari orqali nafaqat obyektiv haqiqatni, balki insonning ichki dunyosini, fikrlash tarzini, mantiqiy yondashuvlarini ham aks ettirib beradi. Ayniqsa, aqliy qobiliyatni ifodalovchi frazeologizm va iboralar jamiyatda ta’lim, muloqot, va ijtimoiy o‘zaro aloqalarda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Ingliz va o‘zbek tillarida mavjud frazeologik birliklar orasida aqliy faollikka doir iboralar, insonning mantiqiy va analitik fikrlash qobiliyatini, tafakkurini aks ettiruvchi o‘ziga xos ifodalardir. Har bir xalq o‘z tilida aqliy qobiliyatni tasvirlashda turli xil ma’naviy va madaniy qadriyatlarni, hayotiy tajribalarni o‘zida mujassamlashtirgan. Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham aqliy faoliyatni ifodalovchi frazeologik birliklar keng tarqalgan bo‘lib, ular ko‘pincha ma’nolarini kengaytirib, metafora, taqqoslash va boshqa til vositalaridan foydalangan holda shakllanadi. Bunday turdagi frazeologik birliklar nafaqat tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, balki ularning insonlarning mantiqiy fikrlash tarzi, dunyoqarashlari va intellektual salohiyatini qanday ifodalashini ham ochib bera oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Aqliy qobiliyatlarni ifodalovchi iboralar adabiyotda, nutqimizda, tilshunoslikda keng qo‘llaniladi, chunki ular o‘quvchiga qahramonlarning ichki dunyosini, qarorlar qabul qilishdagi jarayonlarini va intellektual salohiyatlarini ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, turli asarlarda va kundalik hayotda aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklar haqida batafsil so‘z yuritiladi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotidagi mashhur asarlarda va ingliz adabiyotidabu kabi birliklarqay holatda ishlatilishi tahlil qilinadi. Intellektual qobiliyatni ifodalovchi iboralar tilda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Vladimir Kunin asosan frazeologiya, semantika va lingvistik tipologiya sohalarida o‘z tadqiqotlarini olib brogan [5] Uning asarlarida asosan frazeologiya va uning muammolari, tarkibi qismi va xususiyatlari berib o‘tilgan. Kuninning tadqiqotlari, tilshunoslikda frazeologiya va semantikaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, uning tadqiqotlari rus va ingliz tillarda frazeologik birliklar va ularning struktural tuzilmalari haqida yangi tushunchalar kiritdi.[6]

N.N Amosova o‘zining “ Ingliz tili frazeoloiya asoslari” kitobida ingliz tilidagi frazeologik birliklarning struktural tuzilishi, semantikasi va ularning funksional xususiyatlari haqida batafsil tahlillar berilgan. Amosova frazeologiyani ingliz tilidagi shakllarini, ularning ma’nolarini va ishlatilishi, frazeologik birliklarning klassifikatsiyasi, fraza, idiom va ularning chegaralari haqida chuqur o‘rganib, ularning til va madaniy kontekstdagi rolini yoritgan.[3]

O‘zbek tilida ham iboralarni o‘zbek tilshunoslari batafsil o‘rganib chiqqan bo‘lib, ular orasida Sh.Rahmatullayev asarlari alohida o‘ringa ega. U o‘zining “ Nutqimiz ko‘rki” asarida iboralarga batafsil ta’rif bergan.[1] Sh.Rahmatullayning “ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”[2] adabiy til va shevalarda, mumtoz tarixiy manbalarda mavjud iboralar tizimini o‘z ichiga oladi. Sh.Rahmatullayev lug‘ati 3000 dan ortiq frazeologik birlik izohini o‘z ichiga olgan. Mazkur lug‘atdan foydalangan holda aqliy faollikni ifodalovchi bir nechta frazeologik birliklarni ko‘rib chiqishni niyat qildik.[2]

Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar orasida o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash orqali, ularning til va jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini tushunish mumkin. Misol uchun, ingliz tilidagi “*a sharp mind*” (*aqli tafakkur*) va o‘zbek tilidagi “*zehn(i) o‘tkir*” ((idrok qilish, fahmlash qobiliyati odatdagi darajadan kuchli):*Uning zehni juda o‘tkir, o‘zi tirishqoq edi*. P.Qodirov. Uch ildiz.) kabi iboralar intellektual qobiliyatni ifodalashda ishlatiladi, lekin ularning metaforik asoslari va ijtimoiy madaniyatdagi talqinlari farq qilishi mumkin. Ingliz tilida aqliy faollikni ifodalovchi frazeologizmlar ko‘proq mantiqiy va rasmiy kontekstlarda ishlatilsa, o‘zbek tilida ko‘proq an’anaviy va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq tarzda uchraydi.

Shu tarzda, frazeologik birliklarning o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixolingvistika va adabiyotshunoslik sohalarida ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu birliklar insonning aqliy qobiliyatlarini ifodalashdagi xilma-xillikni, tilning madaniy va ijtimoiy kontekstdagi rolini, shuningdek, jamiyatdagi muloqot va ta’lim tizimidagi ahamiyatini yanada chuqurroq tushunish imkon beradi.

Maqolada frazeologik birliklarni tahlil qilishda asosan qiyoslash metodidan foydalanilgan bo‘lib, bu metod orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklar orasidagi o‘xshashliklar va farqlar aniqlanib, har bir frazeologik birlikning semantik va funksional xususiyatlari taqqoslanadi. Har ikki tildagi frazeologik birliklarni solishtirish orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, tilshunoslik va adabiyotshunoslikda keng qo‘llaniladigan kontseptual tahlil usulidan ham foydalangan holda, aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklarning mazmuni va ular yordamida shakllangan kontseptlar ham o‘rganiladi. Maqsad – ingliz va o‘zbek tillarida aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklarning farqlari va o‘xshashliklarini aniqlash, shuningdek, bu frazeologizmlarning til va jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirishdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aqliy faoliyatni ifodalovchi iboralar ham ijobiy ham salbiy ma’nolarda qo‘llaniladi. O‘zbek tilida *bosh(i) qotdi* iborasi ikki xil ma’noda ifodalaniladi 1. uzoq o‘ylab ham aniq bir

fikrga kela olmaslik. Sinonimi: *o‘ylab-o‘ylab, o‘y(i)ga yetolmaslik. Masalan, Tog‘yo‘nishning nima zaruriyati bor ekan deya boshim qotdi.* (Tog‘ni yo‘nish nimaga zarurligi to‘g‘risida ko‘p o‘ylab ham topolmaslik) Oydin. Shiringa maktub. *Bu ishning har tomonini o‘ylay berib boshi qotgan Toshpo‘lat aka Qutbinisa bilan maslahatlashib.* Mirmuhsin. Jamila. 2 o‘ylayverib gangimoq. Varianti: *bosh qotdi (–); bosh(i)ni qotirmoq, boshni qotirmoq.* Misol uchun: *Bu savol bir haftadan beri Shukurjonning ham boshini qotirib, uyqusini qochirmoqda edi.* O.Yoqubov. *Bosh(i) shishdi o‘ylayverib gangimoq.* Varianti: *kalla-(si) shishdi.* Sinonimi: *bosh(i) qotdi, m miya(si) g‘ovlab ketdi.* Masalan, *Shu kunda hammaning boshi shishgan.* Oybek. Qutlug‘ qon.

Keying ibora *Bu qulog‘(i)dan kirib, u qulog‘(i)dan chiqib ketmoq-e‘tibor bermay, xotirasida tutib qolmaslik. U vaqtda bu gaplar bu qulog‘idan kirib, u qulog‘idan chiqib ketgan edi.* S.Anorboyev. Oqsoy. Mazkur iboralar inson aqliy qobiliyatining turli xil usullardan ifodalanishi bo‘lib, ular kontekstga qarab ma‘nosi o‘zgarib boraveradi.[2]

Ingliz tilida inson aqliy qobiliyatini ifodalovchi iboralarni rus tilshunosi P.P.Litvinov o‘zining “Ingliz –rus frazeologik lug‘ati” da iboralarni 13 guruhga bo‘lib chiqqan bo‘lib, ularni alohida kichik guruhlariga ajratib chiqqan[7]. Mazkur lug‘atni birinchi guruhida aynan inson aqliy qobiliyatini ifodalovchi ko‘plab iboralarni berib o‘tilgan. Masalan “to have a good head on one’s shoulders” - mulohaza yuritadigan va dono qarorlar qabul qilish uchun yetarlicha aqlli kishi. His daughter has a good head on her shoulders. Yana bir misol, to be a sharp as a needle- He never misses anything. Sharp as a needle. Aqliy faoliyatni ifodalovchi ko‘plab iboralar ingliz adabiyotida ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan, "to use one’s brain", "to think critically" va "to reason logically" kabi ifodalar biror muammoni hal qilishda intellektual yondoshuvni ko‘rsatadi. Shuningdek, bu iboralar ko‘pincha odamlarning tasavvuri va ijodkorligini ta’kidlaydi, chunki anglash va aqliy faoliyat ko‘plab ijtimoiy va ilmiy sohalarda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omilidir.

Maqolada “Think” - o‘ylash so‘zi bilan bir nechta frazeologik birlikni ko‘rib chiqamiz, bu esa intellektual faoliyatni qanchalik ma‘no anglatayotganini ko‘rishimiz mumkin. Semantik tasniflash bo‘yicha eng ko‘p frazeologik birliklar frazeologik kombinatsiyalardir. Masalan: “think up” - ixtiro qilish, “think over” - bafurja, chuqur o‘ylab ko‘rish. Bir nechta sonli frazeologik birliklar frazeologik kombinatsiyalardir. Masalan: “thinking cap” – jiddiy o‘ylash, “think tank” – miyaning markazi, “think out of the box” – innovatsion yechimlarni topishga harakat qilish ma’nolarini ifodalaydi. Shunday qilib, biz “o‘ylash” so‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklarni o‘rganib chiqdik. Ko‘plab frazeologik birliklarda shaxsni ijobiy xususiyatlarga e’tibor qaratiladi. Masalan: “Put on one’s thinking cap”, “think fit” – mos deb hisoblash, “think on one’s feet” – suhbat davomida tezda o‘ylash, rejalar tuzish, muammolarni hal qilish. Frazeologik birliklar jiddiylilik, zaruriyat va fikrlash tezligi bilan tavsiflanadi. Inson boshini frazeologik birliklarda shapka, chashka, oyoqlar va boshqalar bilan taqqoslaydi. Masalan: "think tank", "thinking cap", "think on one's feet", "thinking mug". Chashka (chashka)ning mustahkamligi, ong uchun idish (tank), boshni ifodalovchi shapka eslatiladi.

Shuningdek, intellektual faoliyatni anglatadigan frazeologik birliklar tafakkur, o‘ylash va qaror qabul qilish bilan taqqoslanadi. Masalan: *"think up"*, *"put on one's thinking cap"*, *"think over"* – o‘ylash, *"think aloud"*, *"think fit"*.

Asosan, bunday aqliy qobiliyatni ifodalovchi frazeologik birliklarning ma‘nosi ijobiydir. Masalan: *"think over"* – o‘ylash, tafakkur qilish, qayta o‘ylash. Bu frazeologik birliklardagi aqli odam jiddiylik, zaruriyat va fikrlash tezligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, salbiy konnotatsiyaga ega frazeologik birliklar ham mavjud. Masalan: *"Pain in the neck"*. Ushbu frazeologik birlik salbiy xususiyatni tasvirlash uchun ishlatiladi. Barcha frazeologik birliklar ong holatining tasdiqlovchi darajasini ta’kidlaydi. Asosan, frazeologik birliklar shakllanishining usuli metafora yordamida amalga oshiriladi. Masalan: *"Put on one's thinking cap"* – bosh bilan ishlash. Ushbu frazeologizm metafora usuli orqali yaratilgan.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklar orasidagi o‘xshashliklar va farqlarni tahlil qilish orqali, tilshunoslar til va madaniyatdagi muhim tafovutlarni aniqlashadi. Masalan, ingliz tilida *"to have a good head on one's shoulders"* iborasi mulohazali va dono fikrlarni tasvirlashda ishlatiladi, bu o‘zbek tilidagi *"boshini ishlatmoq"* yoki *"bosh bilan ishlash"* kabi iboralar bilan parallel ravishda ishlatilishi mumkin. Biroq, ingliz tilida bu ibora ko‘pincha rasmiy va akademik kontekstlarda qo‘llanilsa, o‘zbek tilida bu ibora ko‘proq kundalik hayotda, og‘zaki nutqda ishlatiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida aqliy qobiliyatni ifodalovchi frazeologik birliklar ikki tilning ijtimoiy va madaniy kontekstlariga mos ravishda rivojlanadi. Misol uchun, ingliz tilidagi *"to think outside the box"* iborasi - innovatsion fikrlash va yangi yondoshuvlarni bildiradi. O‘zbek tilida esa shunga o‘xshash iboralar ko‘proq an’anaviy yondoshuvlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘zbek xalqining qarorlar qabul qilishdagi o‘ziga xos uslublarini ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklar tahlil qilingan va ularning til va jamiyatdagi ahamiyati o‘rganilgan. Aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklar nafaqat tilning leksik va grammatik xususiyatlarini aks ettiradi, balki ularning madaniy va falsafiy o‘ziga xosligini ham ko‘rsatib beradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar bir-biridan ma‘no, tuzilish, ishlatilish jihatdan farq qiladi, chunki har bir til o‘zining intellektual faoliyatni ifodalash usuliga ega, bu esa o‘sha til va jamiyatning tafakkur va dunyoqarashini aks ettiradi.

Maqolada keltirilgan frazeologik birliklar, o‘ylash va aqliy qobiliyatni ifodalovchi frazeologik birliklar semantik va pragmatik jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, bu iboralar tilning madaniy va falsafiy kontekstini aks ettirib, har bir millatning mantiqiy fikrlash tarzini, qaror qabul qilish usullarini va dunyoqarashini namoyon qiladi. Xulosa qilib, aqliy faollikni ifodalovchi frazeologik birliklar tilshunoslikda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular insonning fikrlash jarayonlarini va aqliy salohiyatini ifodalashda eng kuchli vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki// “Fan” nashriyoti, Toshkent-1970
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati, “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2022
3. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии - Ленинград, 1963
4. Виноградов В. В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М.: 1977. - С. 140-161.
5. Кунин А.В. Английская фразеология-М.: 1970.
6. Кунин А.В. Большой англо-русский фразеологический словарь. - М.: Русск. лето – Медиа, 2005. – с.1210.
7. Литвинова П.П. Англо -русский фразеологический словарь М.: 2002 г